

**ANTROPOTSENTRIZM TAMOYILINING
TILSHUNOSLIKDAGI NAZARIY IFODASI**

Xolboboyeva Aziza Sherboboyevna

O'zDJTU doktoranti (DSc)

Anjuman yo'nalishi: *Tilshunoslik, adabiyotshunoslik va
madaniyatlararo muloqotning uzviy rivojlanish tendensiyalari*

E-mail: azizakholboboeva@mail.ru

Annotasiya. *Ushbu tezisdagi tilshunoslikda antropotsentrik paradigma inson omili, uning aqliy va hissiy olami, tashqi dunyo bilan aloqasiga bo'lgan qiziqish natijasida rivojlanishi, tildagi "inson" tushunchasi bilan dunyo tasvirini o'rganishga oid nazariy asoslar haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Paradigma, antropotsentrizm tamoyili, voqelik, antropomorfik til, ontologik talqini, immanent tilshunoslik.*

Paradigma - dunyoning yangi manzarasi, atrofimizdagi dunyoning ob'ektlari va hodisalari haqidagi yangi g'oyalar tizimidir. Ilmiy bilimlar tizimidagi paradigma tushunchasi funksional jihatdan dunyoning ilmiy manzarasi tushunchasiga o'xshaydi. Tilshunoslikda antropotsentrik paradigma inson omili, uning aqliy va hissiy olami, tashqi dunyo bilan aloqasiga bo'lgan qiziqish natijasida rivojlandi. Zamonaviy tilshunoslik antropotsentrizm tamoyiliga asoslanadi, til hodisalarini inson omilini hisobga olgan holda tadqiq etadi, buni Apresyan Yu.D., Arutyunova N.D., Karaulova Yu.N, Kolshanskiy G.V., Kubryakova E.S., Maslova V.A., Serebrennikova B.A., Stepanova Yu.S. va boshqalarning asarlari tasdiqlaydi [1,472].

Serebrennikov B.A. "Tildagi inson omili mavzusiga murojaat qilish zamonaviy tilshunoslikda yuzaga kelgan eng muhim uslubiy siljish - uning asosiy paradigmikasining o'zgarishi va tilga munosabati bilan "immanent" tilshunoslikdan o'tishdan dalolat beradi". Bu tilni shaxs, uning ongi, tafakkuri,

ma'naviy va amaliy faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi"[4,108]. Antropotsentrik paradigмага o'tish - kognitiv tilshunoslik, lingvopolitologiya, lingvoopersonologiya, lingvokulturologiya, matn lingvistikasi, lingvopragmatika, kommunikativ lingvistika va boshqa yangi lingvistik fanlarning paydo bo'lishiga hissa qo'shdi.

Bizning olamimiz til orqali tushuniladigan, talqin qilinadigan va ifodalanadigan dunyodir. Tilni tushunish va bilish uchun uning tashuvchisi - shaxsga, so'zlovchi va fikrlovchiga murojaat qilish kerak, chunki til inson hayoti va faoliyati, tafakkuri bilan bevosita bog'liq bo'lib, jamiyat undan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Nemis falsafiy antropologiyasining asoschisi M.Sheller falsafaning barcha markaziy muammolarini "Inson kim yoki nima?" degan savolni qisqartirish mumkinligini ta'kidladi [5,5]. Darhaqiqat, nutqni shakllantirish va idrok etish jarayonlarida shaxsning etakchi rolini tan olish tilshunoslarni antropotsentrizm g'oyasiga olib keldi, bunda til shaxsi birinchi o'ringa chiqadi. Biz ham yuqoridagi bildirilgan fikrlarga qo'shilamiz.

Mazkur o'rinda biz olim Ruzin I.Gning fikrlarini eslashni joiz deb bildik u "Tilshunoslik tadqiqotining falsafiy tabiati" asarida tilning xususiyati haqida quyidagilarni yozadi, "til, uning hayotga singishida, voqelikni aks ettirishi hisobga olinadi. Tilning tabiatini faqat shaxs va uning butun dunyosi asosida anglash mumkin", degan g'oya tobora kuchayib bormoqda... Bularning barchasi hozirgi tilshunoslikda vujudga kelgan eng muhim uslubiy siljish – immanent tilshunoslikdan antropologik tilshunoslikka tilshunoslikdan o'tish davridan dalolat beradi [3,7]".

Bugorskaya N.V. o'zining "Antropotsentrizm zamonaviy tilshunoslik kategoriyasi sifatida" maqolasida yagona nominatsiyaning yo'qligiga e'tibor qaratadi: "Yagona nominatsiyaning yo'qligi - antropotsentrik tilshunoslik, antropologik tilshunoslik, tilshunoslikdagi antropik tamoyil, tilda inson omili, bir fikrning variatsiyasi sifatida qaraladi - falsafiy va umumiy ilmiy kontekstga murojaat qilish orqali yangi yondashuvning mohiyatini oydinlashtirishga imkon bermaydi, chunki falsafa va tabiatshunoslikda uchragan dastlabki uchta tushuncha

(antropotsentrizm, antropologizm va antropik tamoyil) bir xillikdan yiroq” [5,5] degan fikrni olg’a suradi. Biroq anglash(tushunish)da birlikning yo‘qligi tilshunoslarning umumiy ildiz (“*antropo*”) asosida birlashishiga, shaxsning o‘zini va uning atrofidagi dunyoni tushuntirishga, shaxsni ham o‘ziga xos ko‘rinish sifatida tushunishga urinishlariga to‘sqinlik qilmaydi. Antropotsentrizmning yanada “ilg‘or” ontologik talqini biroz boshqacha xususiyatga ega: til ob'ektiv voqelikni insonning ichki dunyosi (uning faoliyatining motivlari va maqsadlari, qadriyat yo‘nalishlari va boshqalar) orqali aks ettiradi, ko‘pincha uni motivlar va qadriyatlarga mos ravishda o‘zgartiradi. Tildagi “inson” tushunchasi bilan dunyo tasvirini o‘rganish (olamning lingvistik tasviri), ko‘pincha sodda, Protagorasning “inson hamma narsaning o‘lchovidir” postulati bilan nazariy jihatdan qo‘llab-quvvatlanadi, bu yerda antropomorfik til xususiyatlariga alohida e‘tibor qaratiladi.

Til antropotsentrik hisoblanib, inson uchun mo‘ljallanganligi tufayli, tashqi dunyo ob'ektlari va hodisalarining butun lingvistik tasnifi shaxsga, individuallikka qaratadi. V. fon Gumboldt asarlarida tilni bilishning individual tabiati haqidagi g‘oyalar vujudga kelgan. Nemis faylasufi va tilshunosi V.fon Gumboldt tilni inson va uning atrofidagi olam o‘rtasidagi vositachi bo‘g‘in deb hisoblagan, tilni o‘rganish “insonning o‘zini bilish maqsadi va uning atrofida ko‘rinadigan va yashirin bo‘lgan hamma narsaga munosabati”ga bo‘ysundirilgan¹deb hisoblaydi. Zero, inson tilda o‘zligini topadi va o‘z ongining harakatini anglay oladi.

Shunday qilib, tilshunoslikda antropotsentrizm tamoyilining tan olinishi tilni keng ijtimoiy-madaniy kontekstda o‘rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Shu munosabat bilan til hodisalarini insonning kommunikativ faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganish zarurati tufayli tilshunoslik oldida yangi vazifalar turibdi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

- 1) Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. Избранные труды: в 2-х т. – М.: Восточная литература, РАН, 1995. – С. 472.

¹ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 383 -bet.

- 2) Бугорская Н.В. Антропоцентризм как категория современного языкознания. // Вопросы языкознания. № 2. – М., 26 бет.
- 3) Рузин И.Г. Философские аспекты лингвистического исследования. // ВМУ. Сер. 7. Философия. – № 3.
- 4) Серебренников Б.А. Как происходит отражение картины мира в языке /Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира. – М.: Наука, 1988. – С. 87–108 с.
- 5) Шелер М. Человек в эпоху уравнивания // Шелер М. Избр. произведения. М., 1994. С. 05.